

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.M.Normatov	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida	229
Sh.T.Tursunkulova	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari.....	235
I.M.Azimov	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar	239
Sh.D.Ismoilov	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari	247
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari.....	251
M.Kamalitdinov, T.Mavlonov	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish.....	257
A.I.Saminov	
Oksymoronning semantik xususiyatlari	261
I.X.Mavlonov	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari	266
B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari.....	272
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	276
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	280
G.Z.Abduraxmonov	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	284
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lif mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari	288
Sh.Ismoilov	
Nogironlik tushunchasining modellari.....	293
D.O.G'afurov	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni.....	300
D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish	303
D.S.Ergasheva	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikga o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash.....	308
G.M.Ravshanova	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lif va ta'lif axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish	313
O.O'.Xolmatova	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....	320
F.A.Tashpulatov	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari.....	324
S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlari bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini	329
F.N.Usmonov	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari	334
E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova	
Suvdag'i og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri	340
S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev	
Allium karataviense o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili.....	349

ASL TURKIY ANTROPONIMLAR VA ULARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK SHAKLLANISHI

ИСКОННЫЕ ТЮРСКИЕ АНТРОПОНИМЫ И ИХ ИСТОРИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ

ORIGINAL TURKIC ANTHROPOONYMS AND THEIR HISTORICAL AND ETYMOLOGICAL FORMATION

Abdullaev Ziyodbek Mansurovich¹

¹Abdullaev Ziyodbek Mansurovich

– Farg'ona davlat universiteti doktoranti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tili antroponimlarining turkiy qatlami va uning shakllanishi ilmiy tahliliga tortilgan. Unda tarixiy-qiyosiy metodga asoslangan holda asl turkiy antroponimlarning tarixiy shakllanishi, ularning struktur-semantik jihatlari hamda qadimgi turkiy qabilalarda bolaga ism berishning motivativ xususiyatlari misollar yordamida tahlil etilgan. Maqolada asl turkiy antroponimlar asosan appellativlardan olingani hamda ularning turkiy qabilalar kundalik hayot tarziga oid narsa-buyum, urf-odat, tabiat hodisalari nomlari asosida shakllangani aniqlangan.

Аннотация

В данной статье научному анализу подвергается тюркский пласт антропонимов узбекского языка и его формирование. На основе историко-сравнительного метода с помощью примеров анализируется историческое формирование исконных тюркских антропонимов, их структурно-семантические аспекты, мотивационные особенности именования ребенка в древнетюркских племенах. В статье установлено, что исходные тюркские антропонимы произошли в основном от appellativов и образовались на основе названий вещей, обычаев и природных явлений, связанных с повседневной жизнью тюркских племен.

Abstract

In this article, the Turkic layer of the anthroponyms of the Uzbek language and its formation are subjected to scientific analysis. Based on the historical-comparative method, the historical formation of the original Turkic anthroponyms, their structural-semantic aspects, and the motivational features of naming a child in ancient Turkic tribes are analyzed with the help of examples. The article found that the original Turkic anthroponyms were derived mainly from appellatives and were formed based on the names of things, customs, and natural phenomena related to the daily life of the Turkic tribes.

Kalit so'zlar: turkiy, antroponim, otlar, nomlar, ismlar, semantik qatlam, appellativ, laqab, ota ism, unvon, identifikator

Ключевые слова: Турецкий, антропоним, имена, смысловой слой, appellativ, прозвище, отчество, титул, идентификатор

Key words: Turkic, anthroponym, names, semantic layer, appellative, nickname, patronymic, title, identifier

KIRISH

Insonlar qadimda o'z farzandlariga qanday ismlar berishgani haqida aniq ma'lumot va dalillar yetarli emas. Faqatgina ba'zi saqlanib qolgan nomlar insoniyatning dastlab qo'llagan ismlari hamda ularning bugungi kun antroponomikasi nuqtayi nazaridan tahlil etish imkonsiz. Shunga mos holda turkiy xalqlar islomdan avval qanday shaxs nomlaridan foydalangani va ularning tilshunoslik va lingvokulturologik tadqiqi ham bu borada tadqiqotlar kamligi va mavzuning monografik aspektida qisman o'rganiganligi jihatidan ham dolzarb hisoblanadi.

ISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TADQIQOT METODLARI

Asl turkiy til asosli antroponimlar V.Maxpirov [5], G.Sattarov [6], E.Begmatov [2], L.Rasonyi/I.Baski [8] kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlariда tahlilga tortilgan bo'lib, ular mazkur ishimiz nazariy asosi sifatida xizmat qiladi. Aynan asl turkiy antroponimlarning bugungi kun o'zbek tili antroponomik tizimi bilan qiyoslangan aspektida tadqiq etilmagani ularni o'zbek tilshunosligi va chog'ishtirma tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etishga sabab bo'ldi. Maqolada antroponimlar tarixiy-tavsifiy, qiyosiy, struktur-semantik tahlil metodlari yordamida tahlilga tortildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Turkiy xalqlar juda qadimiy boy tarixga ega bo'lib islom dini kirib kelishidan avval iste'molda bo'lgan asl turkiy nomlar bugungi kungacha O'rxun-Enasoy yodgorliklari (milodiy V.- VIII. asrlar), Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" (XI.asr) hamda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi asarlari orqali yetib kelgan. Hozida zamонавиу тиллар антропонимик тизими асосини ham aynan asl turkiy til asosli nomlar tashkil etishini kuzatishimiz mumkin.

Qadimgi turkiy shaxs nomlarining semantik qatlamlari. Turkiy tillar dunyoning boshqa tillari, xususan, hind-yevropa tillariga nisbatan alohida semantik kategoriyalarga egaligi sababli mazkur til antroponimlari hind-yevropa tillari antroponimlari bilan qiyosiy aspektida tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etishi Rashoni va Baskilarning turkiy antroponimlar tarixiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida alohida ta'kidlanadi: „*The semantic-typological categories of turkic names seem to be quite specific in comparation with those of the Indo-European and Uralic languages. This is why a reliable system would be useful for comparative purposes for the linguists-onomatologists of quite different languages.*” [8, 39]

Qadimgi turkiy shaxs nomlari semantik jihatdan appellativ otlar kabi xususiyatlarga ega bo'lgan. Rashoni va Baski bu borada quyidagicha fikrni ilgari suradilar: „*In Turkic languages almost every unit (word) can be used as a proper, especially personal name. [...] Traditional anthroponyms are formed of words meaning animals, plants and things used most frequently in everyday life.*”

“*Turk tillarida deyarli har bir so'z atoqli ot vazifasida va asosan shaxs nomi vazifasida kelishi mumkin. [...] Muomaladagi antroponimlar hayvon, o'simlik va kundalik hayotda ko'p qo'llaniluvchi narsa-buyum nomlari asosida shakllangan.*” [8, 36]

Turkiy xalqlar tarixini tadqiq etgan olim Gumilev esa praturk davri shaxs nomlari kanonlashmagan va shu bilan birga deskriptiv xarakterga ega ekanligi hamda nom egasining yoshi va jamoada tutgan ijtimoiy o'rniغا mos holda o'zgarib borishini aniqlagan. Shuningdek, bu davr shaxs nomlari laqab ko'rinishida bo'lib, ularning asosiy qismi metafora ma'no ko'chishi orqali appellativ leksikadan olinganligini ham alohida qayd etish lozim. [7, 624-625]

Turkiy xalqlar antroponimik tizimi o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida turli dinlar ta'siriga uchragan, jumladan, manixaylik, buddizm, islom kabi. Garchi har bir din turkiy antroponimik tizimiga ta'sir etgani holda, unda yangi shaxs nomlari yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bo'lsada, lekin asl turkiy antroponimlar arxaik modellari saqlanib qolgan.

Qadimgi german tillari ikki komponentli shaxs nomlarini tadqiq qilgan Toporova ularni 12 semantik guruhga ajratadi. Blagova ham Toporova kabi qadimgi turkiy qo'shma shaxs nomlarining 12 semantik guruhga ajratgan holda tadqiq etgan. Blagova [3] ta'kidlaganidek, qadimgi turkiy shaxs nomlari turli unvon nomlari bilan qo'llangani holda, ularda aniq shaxs nomi va uning unvonini ajratishning har doim ham imkonli bo'lavermaydi. Shu sababli u nafaqat ikki komponentli, balki uch va undan ortiq komponentli shaxs nomlarini ham tahlilga tortgan va bunda sodda tarkibli antroponimlar ham e'tibordan chetda qolmagan. Ular quyidagilar:

1. Makon va zamонни anglatuvchi antroponimlar

Qut tangri xatuni, O'rgunch tangri, Uz tangri, Kun tangri, Kun bermish sangun

Kuntug'di, Oytug'di, Oyto'ldi, Esan qaja, Oltmish qaja, Beg taş

Qayarluq, Ked boran, Jaśin tangri, Jel tangri

Qara qan, Qul qara, Buyra qara ҳақан

Alty bars, Altmiş qara, Baş qara, Altun qara, Aq baş atyq

Aq qul, Javlaq saryq, Kök büri, Kök taş

2. Flora:

Chechak, Chinor chechak

3. Fauna:

Begach arslan tegin, Arslon mengu, Beg Arslan, Alp Arslan, Bars qan sangun, Bo'ri bars, Buyra xan, Esan buqa, Teka baqshi, Alp tougrul, Lachin, Timir baliq

4. Diniy e'tiqod ifodalovchi so'zlar

Tengri, Kun tengri, Aj tengri, Jol tengri, Tengri quli, Jel tegri, Qut tengri xatuny, Qutadmish bars, Qutluy oyul, Alp qutluy

5. Antroposentrik sferaga oid antroponimlar:

Er bo'ri, Er buya, Er toykul, Er sanchmish, Er bilga qatun, Qut tengri xatun,

*Ata sayun, Apa tarqan, Qyz turmish, Kench tuymush tarqan
 Jeganchuk, Jegan kulug sangun
 Oyuz qayan, Chigil arslan, Qytai buya, Aq bash atyq*

6. Ijtimoiy-huquqiy sferaga oid antroponimlar:
*El buya, El temur, El bilga qatun, Bilga qayan, Eltarish qayan, Kul bilga qayan, Qan elchi,
 Buyra qara haqan, Beg temir, Bars beg, Alp tegin, Altun taj sangun*

7. Iqtisodiy sferaga oid antroponimlar:
Baj temur, Qutluy bajutmush, Idi qurt, Bujan temur, Asuu bulmish, Tolash bilga

8. Turli xil narsa/predmetlar nomlari:
*Temir, Beg temir, El temir, Altun qayan, Altun tamyan tarqan; Kedim urungu, Inanch sachu,
 Qora tuyma, Saruu Saman*

9. Harbiy sferaga oid antroponimlar:
Toqush, Tura tutuq, Qilich, Qilich kuch qara, Urungchi sangun, Bars urungi, Er sanchmish

10. Mavhum tushunchalar asosida yuzaga kelgan antroponimlar
*Öd tangri, Öyut uzdu, Erk arslan sangun, Kuch, Tüy baj bars külüg, Inch buqa, Inanch
 sachu, Örgunch qara.*

11. Atributlar/Sifatlar asosida shakllangan antroponimlar:
*Uyun, Uyun hasan, Ulug türük, Eran ulug, Ked boran, Jash aq bash, Tirig, Üchun külüg
 tirig, Mengü temür, Bilga bek, Ögadaj, Bögü qazan, Külüg sangun, Aryy tegin, Töq bögüt. Toq
 temir, Esan buqa, Mengliq temur*

12. Predikatlar/Fe'llar asosida shakllangan antroponimlar:
*Turmush, Turmush temür, Beg turmush, Qyz turmush, Toqtamush, Aj toldu, Kun tug'du,
 Tapmush, Qutluz bajutmush, El almysh sangun, Alar, Kench bersü, Jürük tüman, El kirmish
 sangun, Qachursu, Qachmas, Tutsu, Qasmysh, Asquch unal, Odyurmish, Ozmysh tegin,
 Ogdülmish Alqashy, Er sanchmysh, Unayan chur ...*

Qadimgi german antroponimikasida poetik qahramon va hukmdorlar nomlari yetakchilik qilgani holda qadimgi turkiy shaxs nomlarining asosiy qismi kundalik hayotda ko'p qo'llaniladigan narsa-buyum va bevosita qadimgi turkiylar kundalik hayot tarzidan kelib chiqqan holda tanlangan.

Qadimgi turkiy tillar antroponimlari haqida so'z yuritilar ekan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asari va u orqali bizgacha yetib kelgan shaxs nomlariga e'tibor qaratish lozim. 7000 dan ortiq arabcha-turkiy so'zlar ma'nolarini o'zida aks ettirgan XI asrda yozilgan mazkur asar turkiy tillar lug'at boyligi haqida ilk mufassal yozilgan manbalardan biri hisoblanadi. Garchi ushbu asar arablar bosqinidan so'ng yozilgan bo'lsa-da, u orqali bizga ko'plab qadimgi turkiy til so'zları, jumladan, atoqli otlar va asosan shaxs va joy nomlari yetib kelgan. Qozoq tilshunosi Maxpirov "Devoni lug'atitirk" asaridagi antroponimlarni tadqiq etgani holda, unda 105 ta shaxs nomlarini aniqlagan va ulardan 70 tasi turkiy tilga xos nomlar ekanligini ta'kidlaydi. [6, 23-29] Shu asosda xulosa qilish mumkinki, XI asrda yashagan turkiy tilli xalqlar antroponimik tizimi asosan asl turkiy shaxs nomlaridan iborat bo'lgan. Quyida "Devoni lug'atitirk" asaridagi shaxs nomlaridan ayrimlari keltiriladi:

*Beklan, Bektur – erkaklar ismi
 Qatmis – 'qotmoq' fe'lidan yasalgan
 So'kman - kuchli erkaklar laqabi, so'kmoq, yirtmoq fe'lidan yasalgan*

Qadimgi turkiy antroponimlarning shakliy/formal/strukturaviy xususiyatlari: Umumturkiy shaxs nomlarini shaklan tahlil etgan holda ular quyidagi so'z turkumlariga oid so'zlardan olinganini keltirish mumkin:

Ot: *Qilich, Arslan, Kun* v.b.
 Sifat: *oq, qora, ko'k*
 Son: *ikki, olti, oltmish*
 Fe'l: *tur, toqta, ber* [3, 184]

Mazkur davr antroponimlari semantikasi appellativ otlarniki kabi aniq bo'lib, ular bir, ikki yoki uch qismidan iborat bo'lgan.

Turk, Qutlug' tegin, Bektur, Javlaq sariq, Bekach Arslon Tegin

Mazkur davr shaxs nomlari asosan ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi murojaat/chaqiruv shakli va ikkinchisi esa identifikator, ya'ni nomlanuvchini boshqalardan farqlovchi funksiyasini bajargan va u unvon, ota ism yoki kasb nomi bo'lishi mumkin. [5, 171]

XULOSA

Garchi arab tili va islom dinining turkiy tillar antroponomik tizimiga ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsada, asl turkiy shaxs nomlari butunlay yo'qolib ketmadi va qo'llanishda davom etdi. Jumladan, islomdan oldin turkiy shaxs nomlari tarkibida qo'llanilgan *oy, alp, temir, bek, xon, tur, ber* kabilar bugungi kunda ham o'zbek tili antroponomik tizimida faol iste'molda ekanligini kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev Z. Usbekische Personennamen – Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg. 2021.(Abdullaev, Ziyodbek. Uzbek personal names – etymology, grammar, pragmatic. PhD, University Regensburg. 2021)
2. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с. (Begmatov E.A. Anthroponymy of the Uzbek language. Abstract dis... cand. philol. Sciences. – Tashkent, 1965. – 28 p.)
3. Благова, Г. К характеристике типов раннетюркских антропонимов /Г.Ф. Благова // Вопросы языкознания. – 1998. – №4. – 84 с. (Blagova, G.F. On the characteristics of the types of early Turkic anthroponyms / G.F. Blagov // Questions of linguistics. - 1998. - № 4. - P. 184.)
4. Гумилев Л. Древние тюроки. – Москва.: Наука, 1967. – 60 с. (Gumilyov L. Ancient Turks. - Moscow: Nauka, 1967. – 60 p)
5. Махпиров В. Имена далёких предков. – Алматы: Ин-т востоковедения. МН-АН РК, 1997. – 171 с. (Makhpirov V.U. The names of distant ancestors. - Almaty: Institute of Oriental Studies. MN-AN RK, 1997. – 171 p)
6. Махмуд Қошғарий Девони лугати турк. – Тошкент: Фан, 1960 (Mahmud Kashghari Turkish language dictionary. - Tashkent: Fan, 1960)
7. Саттаров Г. Этнолингвистические пласти татарского именника./ Советская тюркология, ономастика. Москва., 1982. № 3. – 23-29 с (Sattarov G.F. Ethnolinguistic layers of the Tatar name. / Soviet Turkology, onomastics. M., 1982. № 3. – 23-29 p.)
8. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции / Отв. ред. Э.Р. Тенишев. 2002. – 624-625 с (Comparative-historical grammar of Turkic languages. Regional reconstruction / Ed. ed. E.R. Tenishev. 2002. = 624-625 p.)
9. Rásonyi L./Baski I. Onomasticon Turicum: Turkic personal names. – Bloomington: Indiana University, Denis Sinor Institute for Inner Asian Studies, 2007. = P.39.